



## PROFESSIOGRAFIYA MOHIYATI VA VAZIFASI

Usmanova Muborakxon Razzoh qizi

*TIU talabsi*

**Kalit so'zlar:** Professiografiya, kasb, soha, psixofiziologiya, somatika

### **Anotatsiya**

Ushbu maqolada Professiografiya haqida asosiy ma'lumotlar, professiografiya vazifasi hamda kasb tanlashning roli haqida so'z boradi.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda inson resurslarini samarali boshqarish, pedagogik jarayonlarni mukammallashtirish va kasb tanlashning asosli yo'lini muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan professiografiya – bu kasblar haqida tizimli ma'lumot beruvchi, ularning mazmuni, shartlari, talab va mas'uliyatini o'rganib, tizimlashtiruvchi ilmiy yo'nalaishdir. U kasb tanlash va kasbiy tayyorgarlik jarayonlarida mustahkam nazariy va amaliy asos hisoblanadi. Ushbu maqolada professiografiyaning mohiyati, ahamiyati va asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Asosiy qism. Professiografiya tushunchasi va tarixi.** Professiografiya so'zi lotincha “professio” (kasb) va yunoncha “graphe” (yozma tavsif) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, kasblarning batavsil tavsifi demakdir. Ilmiy ma'noda professiografiya kasblarning xususiyatlarini kompleks tarzda o'rganish va xujjatlashtirish jarayonidir.

Ushbu ilmiy soha chiqarilishi XX asr boshlarida boshlandi, ayniqsa ishchi va mutahassislar kasbiy faoliyatini tizimli o'rganish zarurati paydo bo'lganda rivojlandi.

### **Professiografiyaning vazifalari:**

-Kasbning to'liq tavsifini yaratish: ish vazifalari, mas'uliyatlar, ish sharoitlari.

-Kasbga oid bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash.



- Kasbga taalluqli psixologik va jismoniy talablarni belgilash.
- Kasbni tanlashda yo'l yo'riq ko'rsatish.
- Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik jarayonlarini tizimlashtirish.
- Ish beruvchilar va ishchi kadrlar orasida moslikni ta'minlash.

### **Professiografiya va uning o'rni.**

Kasb tanlash va kasbiy rivojlanishda professiografiyaning o'rni juda katta ahamiyat kasb etadi. U pedagogika, psixologiya, iqtisodiyot, ishchi kuchi bozorini tadqiq qilish sohalari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, oliy ta'lim muassasalarida professiografik ma'lumotlar talabalarga o'z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos kasb tanlashga yordam beradi. Ish beruvchilar esa professiografik ma'lumotlardan xodimlarni yollash va ta'lim dasturlarini shakillantirishda foydalanadi.

### **Professiografiyaning asosiy elementlari.**

- Kasb tavsifi: kasb vazifalari va funksiyalari, ular bajarilishini tartibga soluvchi normativ xujjatlar.
- Malaka talablari: kasb uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar.
- Psixofiziologik talablar: ishni bajarishda kechadigan psixologik va jismoniy talablar.
- Kasbiy salomatlik: kasb bilan bog'liq sog'liqni saqlash masalalari.

### **Professiografiya usullari**

Professiografiyada quyidagi ilmiy usullar qo'llaniladi:

- Kuzatuv va interevyu orqali ish jarayonlarini o'rganish.
- So'rovnomalar va testlar yordamida kasbga oid malakalarni aniqlash.
- Ish xujjatlari va mehnat stajidan tahlil qilish.
- Kvalifikatsion talablarni aniqlash uchun ekspert baholari.

Ushbu usullar professiografiyaning har tomonlama mukammal va aniq bo'lishini kafolatlaydi.

### **Professiografiyaning zamonaviy ahamiyati.**



Bugungi kunda tezkor texnologik o'zgarishlar, yangi kasblarning paydo bo'lishi va ijtimoiy talablarning o'zgarishi professoigrafiyaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ukadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda asosiy yo'nalishlarni aniqlashda yordam beradi. Shuningdek mehnat bozoridagi talab va takliflarni muvozanatlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Xulosa**

Professiografiya – kasblarni tizimli o'rganish va ularni to'liq tavsivlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy yo'nalishdir. U kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy salohiyat va kadrlarni boshqarish jarayonlarida nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Bugungi sharoitda professiografiya jarayonlarini yanada takomillashtirish, yangi kasblar uchun aniq tavsiflarni ishlab chiqish va mehnat bozorining ehtiyojlari bilan uzviy bog'lash lozim. Shu tariqa professiografiya nafaqat ta'lim tizimida, balki butun mehnat sohasida muhim vosita sifatida qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.R. Babenko “Professiografiya i professionalnaya podgotovka” 1985
2. E.I. Klimov “Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya” Sank-Peterburg 2004
3. G'. Xudoyberdiyev “Kasb tanlash nazariyasi va amaliyoti” Toshkent 2020
4. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi. “Kasb ta'rifnomalari bazasi” rasmiy portal 2023